XALQ DEPUTATLARI JALAQUDUQ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-13-110-1-21-K/25 Jalaquduq tumani

Jalaquduq tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to`g`risida

O`zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to`g`risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O`RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K-son qaroriga muvofiq hamda Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 01/05/2-15-/2487-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Jalaquduq Kengashi

QAROR QILADI:

1. O`zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to`g`risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K-son qarori (keyingi o`rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Jalaquduq tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **163,9 mlrd.so`m** va xarajatlari esa **163,9 mlrd.so`mga** ma`lumot uchun qabul qilinganligi miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Jalaquduq tuman byudjetining shaxsiy g`azna hisobvarag`ida turgan byudjet mablag`larining yo`l qo`yiladigan eng kam miqdori **0,7 mlrd.so`m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko`rsatkichlari1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag`larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg`armasi hajmi 2026-yil uchun **1,8 mlrd.so`m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg`armasi mablag`larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo`lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo`lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo`naltirilishi ta`minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag`allikni qisqartirish masalalari bo`yicha birinchi o`rinbosari A.Abdujabborov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo`limi (O.Ashurov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Sobirov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko`rsatkichlarni o`z vaqtida va samarali bajarilishini ta`minlash choralarini ko`rsin.

6. Hududiy byudjet mablag`larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag`larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag`larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag`lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqqi va unga tenglashtirilgan to`lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to`liq rejalashtirilishi va o`z vaqtida to`lanishi;

o`zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to`g`ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag`larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to`liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag`larning to`g`ri taqsimlanishi;

o`z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta`minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma`lumotlarni joylashtirib borilishini ta`minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Jalaquduq Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi E.Qurbonov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag`allikni qisqartirish masalalari bo`yicha birinchi o`rinbosari A.Abdujabborov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **LATIPOV XIKMATILLO ABDULXAMIDOVICH**

Xalq deputatlari Jalaquduq tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-13-110-1-21-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Jalaquduq tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognozi

ming so`mda

№	Daromad turlari	Jalaquduq tumani
	JAMI	**163 883 780**
1	Qo`shilgan qiymat solig`i	3 488 800
2	Foyda solig`i	569 400
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 815 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	66 063 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	594 000
	Aksiz solig`i jami	14 686 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg`isi va gazni oxirgi iste`molchiga realizatsiya qilishda to`lanadigan aksiz solig`i*	*14 686 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 670 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig`i	11 983 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i	11 027 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i	21 137 000
11	Qurilish materiallari bo`yicha yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq	1 912 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 302 000
	shundan: Qishloq xo`jaligi korxonalari bo`yicha suv solig`i	*5 600 000*
	boshqa korxonalar	*702 000*
	Qishloq xo`jaligi korxonalari suv solig`ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*-2 240 000*
13	Davlat ulushi bo`yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	8 525 300
15	Yig`imlar	3 041 900
16	Jarimalar	7 222 380
17	Davlat mulki bo`yicha ijara to`lovlari	87 000

Xalq deputatlari Jalaquduq tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-13-110-1-21-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Jalaquduq tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag`lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag`larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy byudjet mablag`lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**163 883 780**
1	Maktabgacha va Maktab ta`limi bo`limi	*55 850 637*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 399 000*
2	Madaniyat bo`limi	*13 936 659*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo`limi	*6 757 229*
4	Sport bo`limi	*8 278 348*
5	Kambag`allikni qisqartirish va bandlik bo`limi	*1 501 896*
6	Qishloq xo`jaligi bo`limi	*3 172 489*
7	Irrigatsiya bo`limi	*2 243 766*
8	Iqtisodiyot va moliya bo`limlarini saqlash xarajatlari	*2 395 057*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo`limi Ijtimoiy ko`nikma markazlari xarajatlari	*109 200*
10	Hokimiyat	*50 122 595*
	Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi	*30 752 313*
	"Mahalla byudjeti" jamg`armasi mablag`lari	*1 858 000*
	Zahira jamg`armasi	*1 834 726*
11	Hokimiyat (O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 086 526*
	shundan:	
	O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*122 973*
	Axborot-kutubxona markazlari	*963 553*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	18 429 378
13	Boshqa tashkilotlar	0